

**OGAHIY VA AHMAD DONISHNING IJTIMIY VA
MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI**

HOSHIMOV JAMSHID G'AFURJON O'G'LI.

TDTr.U talabasi.

Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ilmiy raxbar.

Annotatsiya: XVIII -XIX asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol va falsafiy, madaniy jarayonlar ham o'zgaradi. Ogahiy asarlari qahramonlik fazilatlari, muhabbat sirlari, ehtirom va samimiyat durdonalari bilan sug'orilgan. Sharq falsafasi mujassamlashgan asarlardir. Ahmad Donish o'zining ilg'or qarashlari bilan o'sha davrning va kelajakda paydo bo'lgan vatanparvarlar va faylasuflarining faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. U ma'rifatparvar edi.

Kalit so'zlar: Beqarorlik, ijtimoiy, siyosiy, falsafiy, madaniy jarayonlar.

Abstract: In the 18th and 19th centuries, the socio-political situation and philosophical and cultural processes also changed in Central Asia. Ogahi's works are filled with heroic qualities, secrets of love, masterpieces of respect and sincerity. Oriental philosophy is the epitome of works. With his advanced views, Ahmad Donish had a great influence on the work of patriots and philosophers of that time and in the future. He was enlightened.

Key words: Instability, social, political, philosophical, cultural processes.

XVIII -XIX asrlarda mamlakatimizdagi vaziyat yanada keskinlashadi. Mamlakat xonliklar va amirliklarga bo'lnib ketadi. Natijada O'rta Osiyoda ijtimoiy-siyosiy ahvol va falsafiy, madaniy jarayonlar ham o'zgaradi. Shunday sharoit bo'lsada xalq o'rtasidan ma'rifatparvar shoir va yozuvchilar yetishib chiqadi. Ular jumlasiga Muhammad Mirzo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809-1874)ni olish mumkin. Ogahiy Xorazmning Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Uning she'riyat olamida jonbozlik ko'rsatishiga amakisi Munisning ta'siri bo'lgan. U o'z davrining ulkan shoiri, tarjmoni, tarixchisi sifatida ko'zga

tashlandi. Ogahiy Navoiy ijodidan babra olgan. «Oshiqlar tumorı» devonini yozgan.

Ogahiy o‘z avlodlariga yigirma mingdan ko‘proq misra she’rni o‘z hajmiga sig‘dirgan poetik meros qoldirgan ulug‘ adibdir. Sa’diy Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan allomadir. Ming afsuslar bo‘lsinki, Ogahiyning falsafiy, axloqiy va badiiy xarakterdagи tarjimalari chuqr o‘rganilgan emas.

Ogahiy yashagan davr haqiqatdan ham o‘ta ziddiyatlidir. Mayda xonliklar tarkib topib ular o‘rtasida ziddiyatlar keskin tus olgan edi. Faqat xonliklar emas, hatto shaharlar o‘rtasida ham kelishmovchiliklar bo‘lib turardi. Separatizm avj olgan edi. Masalan, Toshkent shahrining o‘zi to‘rt qismga bo‘lingan bo‘lib to‘rt hokim tomonidan boshqarilgan. O‘zbekistonning tarixi (rus tilida) haqida yozilgan kitobda shunday fikrlarni uchratamiz. «Toshkent shahrining aholisi doimo qurollangan holda yurishga majbur bo‘lganlar. Hatto, ular bozorlarga borganlarida ham, dala ishlariga chiqqanlarida ham to‘liq harbiy anjomda yurar edilar, chunki har kuni har soatda yovning hujum qilish xavfi bor edi».

Buxoro, Xiva, Qo‘qon hukmronligi davrida davom etgan siyosiy hayotdagi anarxiya, iqtisodiy tushkunlik, umumiyl vayronalik, rahmsizlarcha o‘rnatilgan vahshiyona ekspluatatsiya xalq boshiga son-sanoqsiz kulfatlarni yog‘dirdi. Jabrlangan xalq o‘z maqsadlarini ko‘proq adabiyot, san’at qirralaridan foydalaniib izhor qilgan. Natijada zaruriyat sifatida ko‘plab ma’rifatparvarlar yetishib chiqgan. Shular qatorida Ogahiy ham turadi. Ogahiy qatorida Turdi, Mashrab, Munis Xorazmiylar bo‘lgan. Junaydulla Hoziq «Amir Qassob» deb nom chiqargan Buxoro Amiri Amir Nasrullo siyosatiga qarshi chiqqani uchun Amir jallodlari tomonidan o‘ldirilgan. Adiblardan Maxmur ham qiyinchiliklarga duchor qilinadi. Xalq manfaatini himoya qilgani uchun butun bir umri och-yalang‘ochlikda o‘tadi. Shoira Nodira keksaligiga qaramasdan erkparvar bo‘lgani uchun, mamlakat obodonligi yo‘lida qilgan ishlari evaziga 1842 yilda o‘g‘li va ikki nabirasi bilan birga boshi kesiladi. Mujrim Obid, Muhammad Sharif,

Gulxaniylar ham o‘z umrlarini ma’naviy va moddiy qiyinchilikda o‘tkazishga majbur bo‘lganlar.

Ogahiy ana shunday qiyinchiliklar bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zining yoshligidayoq bilim, ma’rifatga o‘ta qiziqqan. Bu o‘zi, yozgan quyidagi fikrdan ham bilib olinsa bo‘ladi:

Qalam aylabon ilm yo‘lida bosh,

Hunar kasbida aylar erdim talosh.

Ne tunlar menga xobi rohat edi,

Ne kunlar zamoni farog‘at erdi.

Amakisi Shermuhammad Munis o‘rniga miroblik mansabini olgan Ogahiy xalq hayotini chuqur o‘rganib va guvohi bo‘lib, ular to‘g‘risida she’rlar yozdi.

Etak sonchib belimga chustu cholok,

Qadam har yo‘l sori urdim tarabnok...

Yeturdim har jamoatga o‘zimni,

Ochib ibrat bila har yon ko‘zimni.

Borining holidin bo‘ldim xabardor,

Ayon ko‘nglimga bo‘ldi barcha asror.

U o‘zining «Baxt saodat bog‘lari», «Tarixlar qaymog‘i», «Sulton voqealarining yig‘indisi», «Gulshani davlat» kabi asarlarida xalq manfaati, amaldorlar faoliyatlarini falsafiy jihatlariga e’tiborni qaratgan. Og‘ir hayotni madh etgan. O‘z hayotidagi og‘ir kechayotgan damlarni quyidagicha ta’riflaydi:

Sovuq xayliga ortib shiddatu kiyn,

Bu qish ne holi kechgay Ogahiyning,

Ki ne chakman anga bordur, na po‘stin,

O‘tin birla ko‘mur ham g‘alla fikri,

Qilibdur ko‘ngulni mahzunu g‘amgin.

Ogahiy asarlari qahramonlik fazilatlari, muhabbat sirlari, ehtirom va samimiyat durdonalari bilan sug‘orilgan. Sharq falsafasi mujassamlashgan asarlardir. She’rlardagi «Pastkash dunyo», «Teskari qurilgan devor», «Aylanib

turuvchi bevafo falak» kabi falsafiy tushunchalar Ogahiyni nafaqat buyuk shoir balki yirik faylasufligidan dalolatdir. Uning faoliyatida ba’zi dindorlar ham tanqid qilingan. Jumladan, Ogahiy, Zohidga qarata ey zohid, hayotda menga xursandchiliklarni man’ etib, toat-ibodat buyurasan, ayt-chi, o’zing shuncha namoz-niyoz qilib nima naf ko‘rding?

Nega, zohido, tarabimni man’ etasan vara’ so‘zini debon,

Qani hosilingni degil manga, necha umr mayl namoz etib.

Ogahiy o‘z ijodining yo‘nalishi va ruhi bilan oddiy xalqqa, ya’ni «faqr ahli», «faqr eli»ga yaqindir. Ogahiyning she’riyati xalqchillik ruhi bilan sug‘orilgandir.

Ogahiy gumanist, falsafiy pantezim yo‘lidan borgan mutafakkirdir.

Masalan:

Bu gulshan sayrini etsang, bosma gustohona tufroqni

Ki, har gom ostida bir paykari ozoda madfundur

Bu misralarda hayot haqida ilgari surilgan oljanob chaqiriqdan tashqari chuqur falsafiy mushohada, Navoiy, Xayyom kabi Sharq mutafakkirlarini esga tushiradigan panteistik ruh, so‘fiyona donolik ko‘zga tashlanib turadi.

Ogahiyning she’rlari til va uslub jihatidan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ogahiy she’riyatining falsafiy badiiy mahorati haqida ma’lum taassurotga ega bo‘lish uchun ajoyib usulda yozilgan shu parchani keltirish kifoya:

Mehru vafo rasmin tuzub, javru jafo tavrin buzub,

Shirin tabassum ko‘rguzib, la’li durafshoning kelur.

Ashadiy vatanparvar, xalq dardi bilan yashagan, el-yurtning kelajagini o‘ylagan buyuk insonlardan yana biri – Ahmad Donishdir. O‘ta bilimli aql-zakovatli bo‘lgan bu insonni o‘z zamondoshlari kallali, degan laqab bilan ataganlar. U (1827-1897) butun umrini falsafa, falakiyat, tarixga oid asarlar yozishga bag‘ishladi. Buxoro amirlarining tarixlari «Nodir voqealar» nomli asarlari bilan dunyoga tanilgan. «Nodir voqealar» asarida dunyo voqealarining falsafiy jihatlarini tahlil qildi. Dunyoning abadiyligi, yerning sharsimonligi,

yulduz va sayyoralarning doimiy harakatida bo‘lib turishini yangi dalillar bilan boyitgan.

«Er qimirlashi sababsiz bo‘lmaydi, - deydi u, - buning sababi esa haroratlik, uning yer markazida yuqoriga ko‘tarilishi yoki tog‘ning ba’zi joylari bo‘shashib ketganligidir ... Yer ostida tiqilib-siqilib yotgan bug‘larning kuchi, harakatlaridan o‘sha yerda zilzila paydo bo‘ladi. Bundan tog‘ atrofidagi ba’zi joylar yorilib suv buloqlari oqadi; yoki u haroratning zarbasidan yer yorilganda undan qattiq sadoli tovush chiqadi. Tog‘ tepaliklarining oralari ajralib ularda, o‘ngir teshiklar paydo bo‘ladi».

Donish astronomiya faniga juda qiziqqan. Oy va quyoshning tutilishi sabablarini tabiat yoki koinotning o‘zidan izlash lozimligini aytadi. Ahmad Donishning O‘rta Osiyo falsafasi tarixidagi xizmati shundaki, u (sxolastika) tasavvufchilik falsafasini ba’zi qirralarini ochishga intildi. Uning ba’zi fikrlarida (Umar Xayom fikrlariga asoslanib) olamni xudo tomonidan yaratilganligi ham ko‘zga tashlanadi. O‘z asarida ruhning jismga munosabatini tahlil qilganda, uning falsafada chuqur mulohaza yuritishini sezish mushkul emas. Uningcha ruh ikki ko‘rinishga ega. 1. Sof, muqaddas, ilohiylik bo‘lib, u barcha jismlarga o‘z nurini yuborib turadi. 2. Ruh jismlar dunyosiga joylashtirilgan, ammo, o‘limga mahkumdir. U tashqarida mavjud emas. Bu fikrlardan sezamizki, Ahmad Donish qarashlarida idealistik va materialistik qarashlar bir-birini to‘ldiradi. Falsafadagi bilish muammaosini ham u ijobiy tahlil qilaoldi va inson olamni bilishga qodir deb uqtirdi. Ahmad Donish barcha hodisalarini tahlil qilishda ilmiy yondoshishga chaqirdi. Inson faoliyatida mehnat va bilim asosiy o‘rinni egallashini fahmladi. Insonlarni halol mehnat qilishga, taqdirga ishonishga chorlab, agar shunday qilinmasa odam faoliyati aqlsizlikdandir, deb ta’kidlaydi, alloma. Odamlar o‘z g‘ayrati va harakati, shijoati bilan o‘z maqsadlariga erishaoladi. Ahmad Donish o‘zining ilg‘or qarashlari bilan o‘sha davrning va kelajakda paydo bo‘lgan vatanparvarlar va faylasuflarining faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. U ma’rifatparvar edi.

Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida elchixonada xizmat qilayotgan Ahmad Donish Buxoro amirligining mustaqil ish tuta olmaganligini ko'rib, kuyingan va «Biz o'zbeklar qachongacha g'aflat uyqusida yotamiz» degan fikrni yuritib, har bir o'zbekni ma'rifatga chorlagan.

REFERENCES

1. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Севинч Акмаловна Тогаева. ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПРОБЛЕМ СОЦИАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 52-55.
2. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Шавкатова Сарвинаозхон Лазиз қизи. РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ИСТОРИИ ФИЛОСОФИИ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 60-63.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов, Ўралова Дилноза Орифбой қизи. РОЛЬ ФИЛОСОФИИ В ФОРМИРОВАНИИ МИРОВОЗЗРЕНИЯ. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS. Vol. 1 No. 2 (2024). P. 56-59.
4. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдусатторов, Фатхулла Хайрулла Ўғли, & Ғанибоев, Дилмурод Анваржон Ўғли (2023). ТЕНГЛИК ВА БАХТ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРДА ТУТГАН ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 16-21.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, Абдухоликов, Диёрбек Сайрбек Ўғли, & Комилов, Фарходжон Абдусамин Ўғли. (2023). ИЖТИМОЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ШАКЛАНТИРУВЧИ ВА ТАРТИБГА СОЛИБ ТУРУВЧИ МУҲИМ ОМИЛЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (3), 41-46.
6. Салимов , Б. Л., Файзиев , С. Ф., & Қурамбаев , Ж. (2022). ЕВРОПА ОЛИМЛАРИНИНГ АСАРЛАРИДА ИНСОН ВА ИЖТИМОЙ

МУНОСАБАТЛАРНИНГ

ЎЗАРО

АЛОҚАДОРЛИГИНИНГ

ТАХЛИЛИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 44–50.